“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Dalillarni baholashning xalqaro-huquqiy standartlari va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari

Shoira Gafurova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: shgafurova707@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada xalqaro jinoyat huquqida dalillarni baholashning huquqiy asoslari, xalqaro-huquqiy standartlari hamda O‘zbekiston milliy qonunchiligida belgilangan tartib-taomillar tahlil qilingan. Xususan, dalillarning ishga aloqadorligi, maqbulligi, ishonchliligi va isbotlovchi ahamiyati kabi asosiy mezonlar Xalqaro jinoyat sudi Rim statuti va Protsessual va isbotlash qoidalari asosida o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining dalillarni baholashga oid normalari xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil qilingan. Germaniya va AQSh jinoyat-protsessual qonunchiligidagi dalillarni baholash tajribasi ham ko‘rib chiqilib, ularning milliy qonunchilikni takomillashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada dalillarni baholashda qonuniylik, xolislik va sudyaning ichki ishonchi tamoyillarining o‘rni yoritilib, mavjud huquqiy muammolarni bartaraf etish va dalillarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. xalqaro jinoyat huquqi, dalillar, dalillarni baholash, maqbullik, aloqadorlik, ishonchlilik, Xalqaro jinoyat sudi, Rim statuti

Аннотация. В статье анализируются правовые основы и международно-правовые стандарты оценки доказательств в международном уголовном праве, а также соответствующие положения национального законодательства Узбекистана. Особое внимание уделено таким критериям оценки доказательств, как относимость, допустимость, достоверность и доказательственное значение. Рассматриваются положения Римского статута Международного уголовного суда и Правил процедуры и доказывания, регулирующие вопросы представления, допустимости и оценки доказательств. В сравнительном аспекте исследуются нормы Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, а также практика Германии и США в сфере оценки доказательств. Раскрывается значение принципов законности, объективности и внутреннего убеждения судьи при оценке доказательств. На основе проведённого анализа определяются отдельные проблемы национального законодательства и предлагаются направления совершенствования механизмов оценки доказательств с учётом международных стандартов и зарубежного опыта.

Ключевые слова. международное уголовное право, доказательства, оценка доказательств, допустимость, относимость, достоверность, Международный уголовный суд, Римский статут

Annotation. This article examines the legal foundations and international legal standards for the assessment of evidence in international criminal law, as well as the relevant provisions of Uzbekistan's national legislation. Particular attention is paid to the main criteria for evaluating evidence, including relevance, admissibility, reliability, and probative value. The study analyzes the provisions of the Rome Statute of the International Criminal Court and the Rules of Procedure and Evidence concerning the submission, admissibility, and assessment of evidence. In addition, the relevant provisions of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan are comparatively examined alongside the legal approaches of Germany and the United States. The article highlights the importance of legality, objectivity, and the judge's inner conviction in the assessment of evidence. Based on the comparative analysis, the study identifies certain shortcomings in national legislation and proposes possible directions for improving evidence assessment mechanisms in accordance with international standards and foreign experience.

Keywords. international criminal law, evidence, assessment of evidence, admissibility, relevance, reliability, International Criminal Court, Rome Statute

Dalillarni "sud jarayonlari doirasida nizoli o'tmish hodisalarini qayta tiklash vositasi" sifatida ta'riflash mumkin[1]. Dalillarga baho berish bu tergovchilar, prokurorlar va sudyalar tomonidan ish materiallarining ***aloqadorligi, maqbulligi, ishonchliligi hamda isbotlash ahamiyatini*** aniqlash maqsadida ularni tahlil qilish va baholash bo'yicha tizimli jarayondir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad jinoyat faktlarini aniqlab, ularni talab etilgan huquqiy mezon (masalan, beyond reasonable doubt (oqilona shubhalardan xoli bo'lish)) asosida tekshirishdan iborat. Tegishli dalillarning qabul qilinishi sud jarayonining umume'tirof etilgan asosiy maqsadlaridan birini – ya'ni, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorga kelishni aks ettiradi. Dalil maqbul bo'lishi uchun u ishga aloqador (relevance) bo'lishi kerak. Aloqadorlik esa nisbiy tushunchadir. Aloqadorlikni mavhum holda aniqlab bo'lmaydi[1]. Masalan, ish bo'yicha taraflardan biri sudlanuvchining har ish kuni tush payti ma'lum bir kafeda ovqatlanish odati borligini isbotlamoqchi bo'lsa, bunga ruxsat beriladimi? Bu mazkur ma'lumotning ishga aloqadorligiga bog'liq va qo'shimcha tafsilotlarsiz, bu savolning yagona javobi – "bilmaymiz" bo'lishi kerak. Ushbu ma'lumotning aloqadorligi to'g'risida bir qarorga kelish uchun, avvalo, taraf uni nima sababdan taqdim etmoqchi ekanligini va bundan ko'zlangan maqsadni bilib olishimiz lozim. Agar qaror qabul qilishda bu ma'lumotni inobatga olishga ruxsat berilsa, faktlarni aniqlovchi shaxs undan qanday foydalanadi? Har qanday vaziyatda ham ma'lumotning aloqador deb topilishi uchun bir qancha sabablar bo'lishi mumkin. Bu sudlanuvchiga qo'yilgan ayblov bo'yicha uning aybini tasdiqlashi

yoki, aksincha, sudlanuvchini jinoyat sodir bo‘lgan joyda bo‘lganligini ko‘rsatishi mumkin.

Xalqaro jinoyat sudining asosiy hujjati bo‘lgan Rim statutida ham dalillarni baholash bo‘yicha normalar keltirilgan. Rim statutining 74-moddasiga binoan, Sud palatasi oldida taqdim etilgan va muhokama qilingan dalillar sud hukmida ayblanuvchining aybdor yoki aybsizligi to‘g‘risida qaror chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, Xalqaro jinoyat sudining huquqiy bazasi va yurisprudensiyasi Sud palatasiga ***“ayblovga javob berish uchun asos yo‘q” (no case to answer)*** tartib-taomili doirasida, shuningdek, 55-nizomga muvofiq sud jarayonining dastlabki bosqichlarida ham dalillarni baholash imkonini beradi. “Ayblovga javob berish uchun asos yo‘q” tartib-taomilida Sud palatasi ayblovchi tomon o‘z dalillarini taqdim etib bo‘lgach, yetarlicha asoslantirilmagan ayblovlar bo‘yicha qisman yoki to‘liq oqlov hukmi chiqarish ehtimolini inobatga olgan holda dalillarni baholaydi. 55-nizomga ko‘ra, Sud palatasi sud muhokamasining istalgan bosqichida taqdim etilgan dalillar asosida taraflarni quyidagilar haqida xabardor qilishi mumkin: faktlarning huquqiy tavsifi o‘zgartirilishi mumkinligi va zarurat tug‘ilganda, taklif etilayotgan o‘zgartirishlar yuzasidan yangi dalillar taqdim etilishiga ruxsat berilishi mumkin. Bu ikki tartib-taomilning huquqiy-siyosiy sabablari turlichadir. Quyida batafsilroq muhokama qilinganidek, “ayblovga javob berish uchun asos yo‘q” tartib-taomili, birinchi navbatda, ayblanuvchining huquqlariga va isbotlash majburiyati ayblovchi tomon zimmasida ekanligiga asoslanadi. Bunday tartib-taomilning mavjudligi, shuningdek, ayblovchi tomon majburiyatini bajara olmagan ayblovlar yuzasidan himoya tomonining e’tiroz bildirishiga va Sudning qo‘shimcha dalillarni eshitishiga hojat qolmasligi hisobiga samaradorlikni oshirish va resurslarni tejashni ham ko‘zda tutadi. Boshqa tomondan, 55-nizom Sud palatasiga ayblov xulosasida keltirilgan fakt va holatlarni Rim Statutida nazarda tutilgan boshqa jinoyatlar hamda javobgarlik shakllari sifatida qayta tavsiflash imkonini berish orqali jazosizlikka yo‘l qo‘ymaslikni maqsad qiladi. Sud palatasi 55-nizomga tayangan holda ayblovchi tomon tanlagan va Sudlovgacha palata tomonidan tasdiqlangan huquqiy tavsiflar bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, Sud palatasi taqdim etilgan dalillarni baholash asosida, ayblov xulosasida bayon etilgan fakt va holatlar doirasidan chiqmagan holda, dastlab belgilanganidan farq qiluvchi jinoyatlar va javobgarlik shakllarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sudlovgacha palata ham ayblovlarni isbotlashning quyi standartiga tayanib tasdiqlaydigan XJSning o‘ziga xos tuzilmasi doirasida 55-nizom Sud palatasiga ko‘proq dalillar taqdim etiladi va u isbotlashning yuqori standartiga muvofiq chuqurroq tahlil o‘tkazadi degan taxminga asoslanadi[3].

Tegishli dalillar sudda ko‘rib chiqilayotgan ayblovga doir masala yuzasidan bayon qilinadi. Tegishli dalillar to‘g‘ridan-to‘g‘ri dalillarni ham, bilvosita dalillarni ham o‘z ichiga oladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki

bilvosita dalillar sud uchun tegishli deb topilishi uchun ular isbotlanishi zarur bo‘lgan jinoyat unsurlariga aloqador bo‘lishi kerak. Agar dalillar jinoyat sodir etilgan joyni, vaqtni, ayblanuvchining shaxsini yoki jinoyatning o‘zidagi jinoiy qilmishlarni isbotlashga xizmat qilmasa, ular ayblovga tegishli deb hisoblanmaydi. Ayblov tarafi dalillarni sud ko‘rishi va o‘rganishi mumkin bo‘lgan ashyoviy dalil shaklida yoki guvohning ko‘rsatmalari shaklida taqdim etishi mumkin; ikkinchi holda, guvoh o‘z sezgi a’zolari yordamida idrok qilganlarini sudga so‘zlab beradi.

“Maqbullik” atamasiga keladigan bo‘lsak kelib chiqishi jihatidan anglo-amerikacha bo‘lib, xalqaro protseduraning keng qoidalariga tatbiq etilmaydigan o‘ziga xos texnik ahamiyatga ega. Shubhasiz, maqbullik turli jinoiy adliya tizimlarida turlicha ma’no kasb etishi mumkin. Umumiy huquq tizimlarida potensial tushunchalarning tegishli doirasi ancha keng bo‘lib, unga ma’lumotning dolzarbligi va isbotlovchi qiymati masalalari ham kiradi.

Anglo-sakson huquq tizimidagi jinoiy sud jarayonida sudya hakamlar hay’atiga taqdim etilishi mumkin bo‘lgan mavjud ma’lumotlarni saralashi va ularning maqbulligini aniqlashi kerak bo‘lsa, roman german huquq tizimlaridagi professional sudyaning roli faktlarni o‘rganishdir. Bu aslida ayblov va tergov tizimlarida sudyalar, prokurorlar va hatto ayblanuvchilarga yuklatilgan turli rollarning faqat bir ko‘rinishidir. Shu sababli, ta’qib qilinishi lozim bo‘lgan jinoyatlarning ko‘lami hamda potensial dalil manbalarining miqdori sud jarayonining borishiga ta’sir ko‘rsatadi va ularni har qanday ichki jinoyat ishi bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, dalilning maqbul deb topilishi uchun birinchi to‘siqdan o‘tishning o‘zi kifoya qilmaydi, u mantiqiy aloqadorlikdan tashqari “qo‘shimcha qiymat”ga, ya’ni yetarlicha isbotlovchi kuchga ham ega bo‘lishi lozim.

Dalillar sud muhokamasida qabul qilinishi uchun yana bir shartga javob berishi kerak. Garchi dalil ish uchun muhim va ko‘rib chiqilayotgan faktik holatga aloqador bo‘lsa-da, uni sud majlisida taqdim etishni taqiqlovchi huquqiy qoidalar mavjud. Bu qoidalar o‘zlari tatbiq etiladigan dalillarni “nomaqbul” deb hisoblaydi va sudyadan ularni ishdan “chiqarib tashlashni” talab qiladi. Bunday nomaqbullik yoki istisno qilish qoidalarining ikki yaqqol misoli – bu eshitilgan gaplarga asoslangan dalillarga (hearsay evidence) qarshi qoida hamda shaxsga oid dalillarga (character evidence) qarshi qoidadir. Bu o‘rinda ham atamashunoslikda noaniqlik mavjud. Maqbullik (admissibility) va qabul qilinishlik (receivability) tushunchalari bir-biridan aniq ajratilmagan. Aloqador bo‘lmagan dalillarni yoki muhim bo‘lmagan faktga oid dalillarni “nomaqbul” deb atash odatiy holdir. Bu shuni anglatadiki, agar dalil aloqador yoki muhim bo‘lmasa, sud uni qabul qilishni rad etadi. Biroq, muhimi shundaki, sud dalillarni nafaqat aloqador emasligi yoki muhim emasligi, balki boshqa sabablarga ko‘ra ham istisno qiladi. Montrouzning fikricha, “nomaqbullik” tushunchasini faqat ana shu boshqa sabablarga ko‘ra dalillarni istisno qilish holatlari bilan

cheklashda ma’no bor. Agar dalil aloqador emasligi sababli rad etilsa, Teyer ta’biri bilan aytganda, uni “oqilona fikrlash qoidasi rad etadi” agar dalil nomaqbullik yoki istisno qilish qoidasiga binoan rad etilsa, bu rad etish qonun kuchi bilan amalga oshiriladi.

Dalillarning maqbulligi to‘g‘risidagi qoida Xalqaro jinoyat sudining Rules and procedurening 63 va 64-moddalarida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, 63-moddada:

Palata 64-moddaning 9-bandida tavsiflangan ixtiyoriga muvofiq, 69-moddaga binoan dalillarning tegishliligi yoki maqbulligini aniqlash uchun taqdim etilgan barcha dalillarni erkin baholash vakolatiga ega bo‘ladi. Palata 69-moddaning 7-bandida bayon etilgan asoslarga ko‘ra yo‘l qo‘yib bo‘lmaslik masalasi ko‘tarilganda, 64-moddaning 9 (a)-kichik bandiga asosan tarafning arizasi bo‘yicha yoki o‘z tashabbusi bilan qaror chiqaradi[4].

Dalilning tegishliligi yoki maqbulligi to‘g‘risidagi masala u Palataga taqdim etilayotgan vaqtda ko‘tarilishi lozim. Istisno tariqasida, agar dalil taqdim etilgan vaqtda bu masalalar ma’lum bo‘lmagan bo‘lsa, masala ma’lum bo‘lishi bilanoq uni ko‘tarish mumkin. Palata masalani yozma ravishda ko‘tarishni talab qilishi mumkin. Agar Sud boshqacha qaror qilmagan bo‘lsa, Sud yozma iltimosnomani sud muhokamasida ishtirok etayotgan barcha shaxslarga yuboradi.

Shuningdek ushbu normaning 69 moddasida:

1. Har bir guvoh ko‘rsatuv berishdan oldin Protsessual va isbotlash qoidalariga muvofiq, o‘zi beradigan ko‘rsatuvlarning haqqoniyligi to‘g‘risida majburiyat oladi.

2. Guvoh sudda shaxsan o‘zi ko‘rsatuv beradi, 68-moddada yoki Protsessual va isbotlash qoidalarida belgilangan choralar bundan mustasno. Sud, shuningdek, ushbu nizomga va Protsessual va isbotlash qoidalariga binoan, guvohning jonli (og‘zaki) yoki yozib olingan ko‘rsatuvlarini video yoki audio texnologiyalar vositasida berishiga, shuningdek, hujjatlar yoki yozma stenogrammalarni taqdim etishga ruxsat berishi mumkin. Bu choralar ayblanuvchining huquqlariga ziyon yetkazmasligi va ularga zid kelmasligi kerak deb belgilab qo‘yilgan. 69-moddada dalillarning maqbulligiga oid asosiy tamoyillar belgilangan. XJS nizomi hamda Protsessual va isbotlash qoidalari dalillarni qabul qilishda texnik qoidalar bilan cheklanmagan moslashuvchan yondashuvni nazarda tutadi. Qat’iy va texnik qoidalar asosan umumiy huquq tizimlarida qo‘llaniladi, bu tizimlarda huquqni qo‘llash va faktlarni aniqlash vazifalari ajratilgan bo‘lib, birinchisi sudyaga, ikkinchisi esa hakamlar hay’atiga yuklatilgan. Buning sabablaridan biri noxolis yoki ishonchsiz dalillarni qabul qilgan oddiy hakamlar hay’ati tomonidan noto‘g‘ri xulosalar chiqarilishining oldini olishdir. Kontinental huquq nuqtai nazaridan, professional sudyalarni himoya qilishga hojat yo‘q, chunki ular hakamlar hay’ati kabi noxolis fikrlarga ochiq emas. Kontinental huquq tizimlari professional sudyalardan foydalangan holda huquqni qo‘llash va faktlarni aniqlash vazifalarini birlashtiradi. XJS professional sudyalardan

foydalanadi va shu sababli dalillarning maqbulligiga oid texnik qoidalarga zarurat yo‘q[5].

Yuqorida keltirilgan normalarga asoslanib aytishimiz mumkinki, dalillarni baholashda ularning ishga tegishliligi va maqbulligi muhim rol o‘ynaydi va bu me’zonlarsiz dalillarni ishda ko‘rib chiqish uchun qabul qilmaslik ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham dalillarni baholash bo‘yicha bir qancha normalar mavjud bo‘lib, ularga Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi va plenum qarorlarini kiritishimiz mumkin. Jinoyat sud ishlarini yuritishda dalillarni baholash – bu sudyaning ish holatlarini anglab yetishga qaratilgan tafakkuriy faoliyatidir. Shu bois dalillarni baholash sudyalarning tafakkuriy faoliyati bo‘lib, u haqiqatni aniqlashni ta’minlaydigan ilmiy bilish metodologiyasiga rioya qilingan holda mantiqiy shakllarda amalga oshiriladi. Biroq ko‘rib chiqilgan belgilar jinoyat sud ishlarini yuritishda “dalillarni baholash” tushunchasini tavsiflash uchun yetarli emas. Bu o‘rinda ichki ishonch, qonun va huquqiy ongning rolini ham ko‘rsatib o‘tish lozim. Jinoyat protsessida dalillarni baholash sudyalarning dalillarni har tomonlama, to‘liq va xolis ko‘rib chiqishga asoslangan ichki ishonchiga ko‘ra amalga oshiriladi. Qonunda har bir dalilning alohida va birgalikdagi qimmati va ahamiyatini oldindan belgilab beradigan rasmiy shartlar ko‘rsatilmagan. Dalillarni baholash tavsifiga huquqiy ongning roli ham kiradi. Huquqiy ong sudyalar umumiy dunyoqarashining tarkibiy qismi sifatida dalillarni baholashga oid qonun talablarining mazmun-mohiyatini anglab yetish imkonini beradi. Dalillarni baholash asosida sud versiyalari ilgari suriladi va ulardan birining yetarlicha tasdiqlangani, qolgan barchasining inkor etilgani aniqlanadi; turli protsessual qarorlarni, shu jumladan sud harakatlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish uchun asoslar belgilanadi; ishning ayrim holatlari va umuman jinoyatning isbotlanganligi yoki isbotlanmaganligi to‘g‘risida xulosalar chiqariladi[6].

O‘zbekiston Jinoyat protsessual kodeksining 81-moddasida “Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi” deb belgilab qo‘yilgan. 95-modda dalillarga baho berish haqida bo‘lib, unda “Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o‘zlarining ichki ishonchlari bo‘yicha dalillarga baho beradilar. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi

ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e'tirof etiladi” deb belgilab qo‘yilgan. Yuqorida belgilab qo‘yilgan normaladan ko‘rishimiz mumkinki Xalqaro jinoyat sudi statutida ham dalillarning asosiy me’zonlari sifatida aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi belgilab qo‘yilgan edi. Lekin JPKda belgilanishicha, sudya dalillarning nomaqbulligi to‘g‘risidagi masalani hal qilayotganda, har bir holatda yo‘l qo‘yilgan huquqbuzarlik aynan nimada ifodalanganini aniqlashi va asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart. Biroq O‘zbekiston Oliy sudi plenumining qarorlaridagi tushuntirishlar qonunning mazkur normasiga mos kelmaydi va qonuniylik tamoyiliga ziddir.

Xorijiy mamalakatlar tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining 261-moddasida (Dalillarni baholash erkinligi) nazarda tutilgan umumiy qoidaga ko‘ra: “Sud dalillarni o‘rganish natijasi bo‘yicha qarorni butun sud muhokamasini baholashga asoslangan o‘zining erkin ishonchiga muvofiq qabul qiladi”. Germaniyada jinoyat protsessining sudgacha bo‘lgan bosqichida isbotlashda ma’lum bir erkinlik mavjudligi sababli, dalillar ixtiyoriy shaklda to‘planishi mumkin. Bunday dalildan foydalanish imkoniyatini istisno etadigan aniq taqiqlarni belgilashga jiddiy e’tibor qaratiladi. GFR Oliy sudining ta’kidlashicha, jinoyat-protsessual qonunchiligi haqiqatga har qanday yo‘l bilan erishish kerak degan tamoyilni nazarda tutmaydi, zotan bu holda u mutlaq ezgulik bo‘la olmaydi.

AQSHda dalillar tushunchasiga keng yondashuv mavjud. Jumladan, ta’riflardan biriga ko‘ra: “Dalil – bu sud va hakamlar hay’atida ularning da’volari yuzasidan ishonch hosil qilish maqsadida, sud muhokamasi davomida taraflar tomonidan yuridik qoidalarga rioya etgan holda muayyan harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan yoki guvohlar, bayonnomalar, hujjatlar, ashyoviy predmetlar va hokazolar vositasida taqdim etilgan har qanday isbotlash vositasi yoki isbotlovchi narsadir”.

AQShda ham dalilning maqbulligi uchun qo‘yiladigan talablardan biri uning daxldorligidir. Dalillarga oid Federal qoidalarning 401-moddasiga muvofiq: “Daxldor dalil – bu ishni hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan har qanday faktning mavjudligini ushbu dalilsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatdan ko‘ra ehtimoliroq yoki kamroq ehtimolli qiladigan har qanday xususiyatga ega dalildir”. Ushbu normativ hujjatning 402-moddasiga ko‘ra: “Daxldor dalil, qoida tariqasida, maqbul hisoblanadi. Daxldor bo‘lmagan dalil esa nomaqbuldir. Agar AQSh Konstitutsiyasi, Kongress akti, ushbu qoidalar yoki qonunda belgilangan vakolatlari doirasida Oliy Sud tomonidan chiqarilgan boshqa normalarda o‘zgacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, har qanday daxldor dalil maqbul deb topiladi.

Berilgan ma’lumotlardan shuni tushinishimiz mumkinki, dalillarni baholash me’zonlari deyarli barcha davlatlar qonunchiligida bir xil normalar asosida amalga oshiriladi. Bu yerda belgilab qo‘yilgan sudyaning ichki ishonchi har bir sudyaning o‘z

holatidan va kasbiy faoliyatidan kelib chiqib belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. MURPHY, Peter. Evidence, Proof, and Facts - A Book of Sources. Oxford: OUP, 2003, p. 1.

2. An Overview Of The Use Of Digital Evidence In International Criminal Courts - Salzburg Workshop On Cyberinvestigations

3. Yeboah-Ofori, Abel ORCID logoorcid: https://orcid.org/0000-0001-8055-9274 and Brown, Akoto Derick (2020) Digital forensics investigation jurisprudence: issues of admissibility of digital evidence. Journal of Forensic, Legal & Investigative Sciences, 6 (1). Pp. 1-8. ISSN 2473-733X

4. НЕЪМАТОВ Ж.А. Методические рекомендации по оценке доказательств в уголовном судопроизводстве – Программа развития ООН в Узбекистане (ПРООН), 2020

5. Wang and Liu: Collection and judgment of electronic data evidence in criminal cases- Journal of Forensic Science and Medicine ¦ Volume 5 ¦ Issue 4 ¦ October-December 2019

6. Golubtsov, V. G. (2019). Theory of evidence and digitization in civil proceedings. Perm Legal Almanac, 1, 379–387

7. Golovko, L. V. (2019). The digitalization in criminal procedure: local optimization or global revolution? Vestnik ekonomicheskoi bezopasnosti, 1, 15–25. (In Russ.). Https://doi.org/10.24411/2414-3995-2019-10002

8. Voronin, M. I. (2019). Electronic Evidence in the Criminal Procedure Code: To Be or not to Be? Lex russica, 7, 74–84. (In Russ.). Https://doi.org/10.17803/1729-5920.2019.152.7.074-084

9. Норбўтаев Э.Х., Хўжақулов С.Б. Ҳимоячи томонидан қонунда назарда тутилган процессуал ҳаракатларни амалга ошириш механизми тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академиясининг ахборотномаси. Т., 2010. №2. 41-б.

10. Ямбаева Д.М. Участие защитника в собирании доказательств на стадии предварительного расследования: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Владимир, 2008. 22 с.